



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi"
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiroital paradigmalarning mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi 293 Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari 300 Xodjayeva Matlyuba Rustamovna	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish 304 Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi	304

SPORTCHILARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVIDA MURABBIY SHAXSINING ROLI

Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sportchilarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida murabbiy shaxsining tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy sport faoliyati nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish, balki sportchining jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topishi hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida murabbiy shaxsining pedagogik mahorati, kommunikativ qobiliyati, liderlik fazilatlarini va psixologik qo'llab-quvvatlash faoliyatining sportchilarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, so'rovnoma, suhbat va psixodiagnostik metodlardan foydalanildi. Empirik tadqiqotda turli sport turlari bilan shug'ullanuvchi 18-25 yoshdagi 120 nafar sportchi ishtirok etdi. Olingan natijalar sportchilarning ijtimoiy moslashuvi darajasi murabbiy va sportchi o'rtasidagi munosabatlar sifati, murabbiyning boshqaruv uslubi hamda uning emotsional qo'llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sportchi, murabbiy, ijtimoiy moslashuv, sport psixologiyasi, liderlik, kommunikativ kompetensiya, sport jamoasi, psixologik qo'llab-quvvatlash, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv.

Abstract: This article examines the role and significance of the coach's personality in the process of athletes' social adaptation. Modern sport is not only a means of developing physical abilities but also an important factor in fostering social competencies, interpersonal relationships, and successful integration into society. The study investigates the influence of coaches' pedagogical competence, communication skills, leadership qualities, and psychological support on athletes' social adaptation. The research employed theoretical analysis, observation, questionnaires, interviews, and psychodiagnostic methods. The empirical study involved 120 athletes aged 18–25 representing various sports disciplines. The findings demonstrate that the effectiveness of athletes' social adaptation largely depends on the quality of coach-athlete interaction, the coach's leadership style, and the level of emotional support provided. The study highlights the importance of the coach as a key factor in the socialization and personal development of athletes.

Key words: athlete, coach, social adaptation, sport psychology, leadership, communication competence, socialization, team environment, psychological support, athlete development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение личности тренера в процессе социальной адаптации спортсменов. Современный спорт выступает не только средством физического совершенствования, но и важным фактором формирования социальных компетенций, межличностных отношений и успешной интеграции спортсменов в общество. В исследовании проанализировано влияние педагогического мастерства тренера, его коммуникативной компетентности, лидерских качеств и психологической поддержки на уровень социальной адаптации спортсменов. В работе использованы методы теоретического анализа, наблюдения, анкетирования, беседы и психодиагностики. В эмпирическом исследовании приняли участие 120 спортсменов в возрасте от 18 до 25 лет, представляющих различные виды спорта. Полученные результаты показали, что успешность социальной адаптации спортсменов в значительной степени зависит от характера взаимодействия между тренером и спортсменом, стиля руководства тренера и уровня оказываемой им эмоциональной поддержки. Подчеркивается значимость личности тренера как важного фактора социализации и личностного развития спортсменов.

Ключевые слова: спортсмен, тренер, социальная адаптация, психология спорта, лидерство, коммуникативная компетентность, социализация, спортивный коллектив, психологическая поддержка, развитие личности спортсмена.

KIRISH

Zamonaviy sport tizimida sportchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Sport faoliyati insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, sportchilarning ijtimoiy moslashuvi masalasi bugungi kunda sport psixologiyasi va ijtimoiy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.



Ijtimoiy moslashuv shaxsning yangi ijtimoiy muhitga moslashishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar, me'yorlar va munosabatlarni o'zlashtirishi hamda ularga muvofiq faoliyat yuritish jarayonini anglatadi. Sportchilar uchun mazkur jarayon sport jamoasiga kirish, murabbiy va jamoadoshlar bilan munosabatlarni shakllantirish, musobaqa faoliyatiga moslashish hamda sport va kundalik hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlash bilan bog'liqdir.

Mazkur jarayonda murabbiy sportchining nafaqat texnik va taktik tayyorgarligiga rahbarlik qiluvchi mutaxassis, balki pedagog, psixolog va ijtimoiy yetakchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Murabbiy sportchi shaxsining shakllanishi, uning motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sportchilarning ijtimoiy moslashuvida murabbiy shaxsining rolini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sportchilarning ijtimoiy moslashuvi muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxsning xulq-atvori atrofda muhit va namuna bo'luvchi shaxslar ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan murabbiy sportchi uchun muhim ijtimoiy model hisoblanadi.

L. Vigotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxs rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Sport jamoasi esa sportchi uchun muhim ijtimoiy institut sifatida xizmat qiladi ^[1:43].

R. Martens sport psixologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida murabbiy va sportchi o'rtasidagi samarali kommunikatsiya sportchining emotsional holati hamda sport natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

J. Smoll va F. Smitlarning tadqiqotlarida murabbiylarning qo'llab-quvvatlovchi boshqaruv uslubi sportchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy faolligi va jamoaga moslashuv darajasini oshirishi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham sportchi shaxsining rivojlanishida murabbiylarning pedagogik mahorati, kommunikativ madaniyati va psixologik tayyorgarligi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, murabbiy sportchilarning ijtimoiy moslashuviga ta'sir qiluvchi asosiy subyektlardan biri bo'lib, mazkur muammoning chuqur o'rganilishi sport faoliyatini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot sportchilarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida murabbiy shaxsining rolini aniqlash va uning ta'sir darajasini baholashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Muammoning nazariy jihatlarini yoritish maqsadida sport psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda pedagogika sohalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, mavjud ilmiy qarashlar o'zaro taqqoslandi va umumlashtirildi.

Tadqiqotning empirik qismida kuzatish, suhbat, anketa so'rovi va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda 18–25 yosh oralig'idagi sportning turli yo'nalishlari bilan shug'ullanuvchi 120 nafar sportchi ishtirok etdi. Respondentlar yengil atletika, futbol, voleybol, kurash va taekvondo sport turlari bo'yicha muntazam mashg'ulot olib borayotgan sportchilar orasidan tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari sportchilarning ijtimoiy moslashuv darajasi murabbiy faoliyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Aniqlanishicha, murabbiy va sportchi o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar mavjud bo'lgan jamoalarda sportchilarning 82,4 foizi yuqori darajadagi ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlariga ega bo'lgan. Aksincha, kommunikativ aloqalar sust rivojlangan jamoalarda bu ko'rsatkich 57,6 foizni tashkil etgan ^[2:54].

Murabbiylarning demokratik boshqaruv uslubidan foydalanishi sportchilarning jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini sezilarli darajada oshirgan. Bunday jamoalarda sportchilarning ijtimoiy faolligi 28,7 foizga yuqori ekanligi aniqlangan ^[3:48].

Tadqiqot davomida murabbiylarning emotsional qo'llab-quvvatlashi sportchilarning stressga chidamliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham kuzatildi ^[4:44]. Musobaqa oldi holatlarida murabbiy tomonidan psixologik yordam ko'rsatilgan sportchilarda xavotir darajasi o'rtacha 21,3 foizga kamayganligi qayd etildi ^[5:33].

Murabbiylarning liderlik qobiliyati sportchilarning jamoaga integratsiyalashuvi va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi ^[6:43]. Liderlik sifatleri yuqori baholangan murabbiylar bilan ishlovchi sportchilarning 76,8 foizi o'zlarini jamoaning to'laqonli a'zosi sifatida his qilganlar ^[7:47].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, murabbiy tomonidan qo'llaniladigan konstruktiv muloqot usullari sportchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, kommunikativ faollik va ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari sportchilarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida murabbiy shaxsining ta'siri muhim psixologik va ijtimoiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar sport jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi ko'p jihatdan murabbiy va sportchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmuni hamda sifatiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, murabbiy sportchi uchun nafaqat texnik va taktik tayyorgarlikni boshqaruvchi mutaxassis, balki ijtimoiylashuv jarayonini yo'naltiruvchi pedagog, psixolog va lider sifatida ham namoyon bo'ladi [8:33].

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan hamohang bo'lib, unga ko'ra shaxsning xulq-atvori va ijtimoiy ko'nikmalari kuzatish hamda namuna olish orqali shakllanadi. Sport faoliyatida murabbiy sportchilar uchun asosiy referent shaxs hisoblanadi va uning xulq-atvori, muloqot madaniyati hamda boshqaruv uslubi sportchilar tomonidan bevosita o'zlashtiriladi [9:41]. Natijada murabbiy shaxsining individual xususiyatlari sportchilarning ijtimoiy qadriyatlari, jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari va shaxslararo munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari L. S. Vigotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasi qoidalarini ham tasdiqlaydi [10:29]. Mazkur nazariyaga ko'ra, shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada amalga oshadi. Sport jamoasi sportchilar uchun muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lib, undagi o'zaro munosabatlar tizimi sportchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy faolligi hamda shaxsiy sifatlarining shakllanishida muhim o'rin egallaydi [11:33]. Bunday jarayonda murabbiy jamoa ichidagi ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy subyekt hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy sport tizimida murabbiy faoliyatini faqat sport natijalariga erishish bilan cheklab bo'lmasligini ko'rsatadi. Murabbiy sportchi shaxsining ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishida muhim tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida qaralishi lozim. Shu sababli murabbiylarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida sport psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, sportchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda murabbiy shaxsining kasbiy mahorati, liderlik qobiliyati, kommunikativ madaniyati va psixologik qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi [12:35]. Mazkur holat sport psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fanlari kesishgan nuqtada olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sportchilarning ijtimoiy moslashuvi murabbiy shaxsining kasbiy va shaxsiy fazilatlariga bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Sport jamoasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi, sportchilarning jamoaga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi hamda shaxslararo munosabatlarning rivojlanishida murabbiy asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Shuningdek, murabbiylarning demokratik boshqaruv uslubi, samarali kommunikativ faoliyati va sportchilarga ko'rsatiladigan psixologik qo'llab-quvvatlashi ularning ijtimoiy faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Aksincha, murabbiy va sportchi o'rtasidagi muloqotning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi sportchilarning ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtirishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari murabbiy faoliyatida nafaqat sport natijalariga erishishga, balki sportchi shaxsining ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois sport tashkilotlarida murabbiylarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, kommunikativ madaniyatini takomillashtirish hamda sportchilar bilan individual ishlash mexanizmlarini kengaytirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, murabbiy sportchilarning ijtimoiy moslashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijalari sport psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Takliflar:

1. Sport ta'limi va murabbiylar tayyorlash dasturlariga sport psixologiyasi hamda ijtimoiy psixologiya bo'yicha maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir.
2. Murabbiylarning kommunikativ kompetensiyasi, liderlik salohiyati va psixologik qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish zarur.
3. Sport jamoalarida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish maqsadida murabbiy, sportchi va sport psixologi hamkorligini kuchaytirish tavsiya etiladi.



4. Sportchilarning ijtimoiy moslashuv darajasini muntazam monitoring qilish va psixologik diagnostika natijalariga asoslangan individual rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish lozim.
5. Murabbiylarning sportchilar bilan ishlash samaradorligini baholashda sport natijalari bilan bir qatorda sportchilarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura A. Social Learning Theory. - New York: General Learning Press, 1977.
2. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. - New York: Freeman, 1997.
3. Martens R. Sport Psychology for Coaches. - Champaign, IL: Human Kinetics, 2012.
4. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. - Champaign: Human Kinetics, 2019.
5. Smith R.E., Smoll F.L. Psychological Perspectives in Youth Sports. New York, 2017.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society. - Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Carron A.V., Eys M.A. Group Dynamics in Sport. - Morgantown: Fitness Information Technology, 2012.
8. Horn T.S. Advances in Sport Psychology. - Champaign: Human Kinetics, 2020.
9. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory. - New York: Guilford Press, 2017.
10. Cox R.H. Sport Psychology: Concepts and Applications. - New York: McGraw-Hill, 2018.
11. Djalalov Sh.V. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - Farg'ona, 2025. - 137 b.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.